


BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI



Научный вестник Бухарского государственного университета
Scientific reports of Bukhara State University

8/2025

E-ISSN 2181-1466



9 772181 146004

ISSN 2181-6875



9 772181 687004



@buxdu_uz



@buxdu1



@buxdu1



www.buxdu.uz

8/2025

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTI
SCIENTIFIC REPORTS OF BUKHARA STATE UNIVERSITY
НАУЧНЫЙ ВЕСТНИК БУХАРСКОГО ГОСУДАРСТВЕННОГО УНИВЕРСИТЕТА

Ilmiy-nazariy jurnal

2025, № 8, avgust

Jurnal 2003-yildan boshlab **filologiya** fanlari bo'yicha, 2015-yildan boshlab **fizika-matematika** fanlari bo'yicha, 2018-yildan boshlab **siyosiy** fanlar bo'yicha, **tarix** fanlari bo'yicha 2023-yil 29-avgustdan boshlab O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar Vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiya ishlari natijalari yuzasidan ilmiy maqolalar chop etilishi lozim bo'lgan zaruriy nashrlar ro'yxatiga kiritilgan.

Jurnal 2000-yilda tashkil etilgan.

Jurnal 1 yilda 12 marta chiqadi.

Jurnal O'zbekiston matbuot va axborot agentligi Buxoro viloyat matbuot va axborot boshqarmasi tomonidan 2020-yil 24-avgust № 1103-sonli guvohnoma bilan ro'yxatga olingan.

Muassis: Buxoro davlat universiteti

Tahririyat manzili: 200117, O'zbekiston Respublikasi, Buxoro shahri Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.

Elektron manzil: nashriyot_buxdu@buxdu.uz

TAHRIR HAY'ATI:

Bosh muharrir: Xamidov Obidjon Xafizovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bosh muharrir o'rinbosari: Rasulov To'liqin Husenovich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor

Mas'ul kotib: Shirinova Mexrigiyo Shokirovna, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Kuzmichev Nikolay Dmitriyevich, fizika-matematika fanlari doktori (DSc), professor (N.P. Ogaryov nomidagi Mordova milliy tadqiqot davlat universiteti, Rossiya)

Danova M., filologiya fanlari doktori, professor (Bolgariya)

Margianti S.E., iqtisodiyot fanlari doktori, professor (Indoneziya)

Minin V.V., kimyo fanlari doktori (Rossiya)

Tashqarayev R.A., texnika fanlari doktori (Qozog'iston)

Mo'minov M.E., fizika-matematika fanlari nomzodi (Malayziya)

Mengliyev Baxtiyor Rajabovich, filologiya fanlari doktori, professor

Adizov Baxtiyor Rahmonovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Abuzalova Mexriniso Kadirovna, filologiya fanlari doktori, professor

Amonov Muxtor Raxmatovich, texnika fanlari doktori, professor

Barotov Sharif Ramazonovich, psixologiya fanlari doktori, professor, xalqaro psixologiya fanlari akademiyasining haqiqiy a'zosi (akademigi)

Baqoyeva Muhabbat Qayumovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bo'riyev Sulaymon Bo'riyevich, biologiya fanlari doktori, professor

Jumayev Rustam G'aniyevich, siyosiy fanlar nomzodi, dotsent

Djurayev Davron Raxmonovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Durdiyev Durdimurod Qalandarovich, fizika-matematika fanlari doktori, professor

Olimov Shirinboy Sharofovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Qahhorov Siddiq Qahhorovich, pedagogika fanlari doktori, professor

Umarov Baqo Bafoyevich, kimyo fanlari doktori, professor

Murodov G'ayrat Nekovich, filologiya fanlari doktori, professor

O'rayeva Darmonoy Saidjonovna, filologiya fanlari doktori, professor

Navro'z-zoda Baxtiyor Nigmatovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Hayitov Shodmon Ahmadovich, tarix fanlari doktori, professor

To'rayev Halim Hojiyevich, tarix fanlari doktori, professor

Rasulov Baxtiyor Mamajonovich, tarix fanlari doktori, professor

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Quvvatova Dilrabo Habibovna, filologiya fanlari doktori, professor

Axmedova Shoira Nematovna, filologiya fanlari doktori, professor

Bekova Nazora Jo'rayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor

Amonova Zilola Qodirovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Hamroyeva Shahlo Mirjonovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Nigmatova Lola Xamidovna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Boboyev Feruz Sayfullayevich, tarix fanlari doktori

Jo'rayev Narzulla Qosimovich, siyosiy fanlar doktori, professor

Xolliyev Askar Ergashovich, biologiya fanlari doktori, professor

Artikova Hafiza To'ymurodovna, biologiya fanlari doktori, professor

Hayitov Shavkat Ahmadovich, filologiya fanlari doktori, professor

Qurbonova Gulnoz Negmatovna, pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Ixtiyarova Gulnora Akmalovna, kimyo fanlari doktori, professor

Rasulov Zubaydullo Izomovich, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

Mirzayev Shavkat Mustaqimovich, texnika fanlari doktori, professor

Samiyev Kamoliddin A'zamovich, texnika fanlari doktori, dotsent

Esanov Husniddin Qurbonovich, biologiya fanlari doktori, dotsent

Zaripov Gulmurot Toxirovich, texnika fanlari nomzodi, professor

Jumayev Jura, fizika-matematika fanlari nomzodi, professor

Klichev Qybek Abdurasulovich, tarix fanlari doktori, dotsent

G'aybulayeva Nafisa Izattullayevna, filologiya fanlari doktori (DSc), dotsent

SERIYA: IJTIMOIIY-GUMANITAR FANLAR

MUNDARIJA *** СОДЕРЖАНИЕ *** CONTENTS		
ADABIYOTSHUNOSLIK *** LITERARY CRITICISM *** ЛИТЕРАТУРОВЕДЕНИЕ		
Murodov G'.N., Farmonova M.F.	Nazar Eshonqul hikoyalarida bola ruhiyati chizgilari: adabiy va psixologik tahlil	4
Ergasheva F.R.	The art of irony in the works of Jerom. K. Jerom and O. Henry	12
Hamidov A.H.	Alisher Navoiy devonlari debochalarida muallif va Husayn Boyqaro tahriri masalasi	17
Latifova M.Y.	Erkin o'xshatishlar va ularning mavzuviy guruhlari (o'zbek adiblari asarlari misolida)	21
Qudratov E.	Iqtibos va uning badiiy san'at sifatidagi ahamiyati	26
Saidov A.A.	Roald Dal asarlarining ijtimoiy tanqid vositasi sifatidagi tahlili	31
Tusmatov Sh.R.	Jahon adabiyotida tibbiyot orqali insoniylik va axloqiy qadriyatlarning aks etishi	37
Xolmurodova G.X.	Transsendentalizm adabiyotining aqsh madaniy hayotidagi o'rni	41
Kodirova S.A.	O'zbek xalq maqollarining o'rganilish tarixi	51
Pardayeva I.M.	"Sadd" timsoli orqali ideal hukmdor obrazini yoritish: Iskandar va Amir Temur kabi adolatparvar shohlar misolida	55
Пулатова С.Ш.	Художественное изображение социальных отношений в антиутопическом романе «Под знаком незаконнорожденных» В. Набокова	61
Pardayeva I.M.	Iskandar va Amir Temur obrazlarining siyrat va surat mezonidagi qiyosiy tahlili	66

Jamahmatov K.A.	Turkiy tilda yozilgan tasavvufiy manbalar sintezi ("Sabotul ojizin" asari misolida)	73
Kamalova D.E.	Adabiy tahrir va uning kompozitsiyadagi oʻrni	78
Жўрабоев И.А.	Марказий Осиёда кенг тарқалган тариқатлар тавсифи	83
JURNALISTIKA *** JOURNALISM*** ЖУРНАЛИСТИКА		
Primov Sh.M.	Madaniy – maʼrifiy sohalarning yoritilishida "mushtum" jurnalining oʻrni va ahamiyati	87
NAVOIY GULSHANI		
Eshonqulov H.P.	Shohligʻdin or etar chunkim Navoiy kirsam mast	91
TARIX *** HISTORY *** ИСТОРИЯ		
Yakubova D.T.	XX asrda Surxon vohasida suv xoʻjaligiga oid sovet siyosati va ijrosi	93
Samarova A.M.	Viloyat aholisining mehnat bandligi, muammolar va oʻzgarishlar	97
Axatov S.A.	"Yangi Oʻzbekiston" strategiyasi – tarixiy taraqqiyot uchun muhim qadam	104
Davlatova Sh.Sh.	"Siyosatnoma" – davlat boshqaruvi toʻgʻrisidagi muhim manba	108
Ismatilloeva Z.I.	Navoiy shahrida madaniy muassasalar faoliyati va taraqqiyot tarixi	114
Каримов С.Ю.	Ишаны в Туркестане в конце XIX — начале XX века: социально-религиозная роль	118
Muhammadiyev Z.O.	IX-XII asrlarda Termizning oshxona idishlari	123
Qandov B.M.	Turor Riqsulovning Turkistonda qishloq xoʻjaligini qayta tiklash islohoti jarayonidagi roli: tarixiy tahlil	128

MADANIY – MA'RIFIY SOHALARNING YORITILISHIDA “MUSHTUM” JURNALINING O'RNI VA AHAMIYATI

Primov Shamsiddin Muhiddin o'g'li,

Buxoro davlat universiteti, O'zbek tilshunosligi

va jurnalistika kafedrasi o'qituvchisi

shamsiddinprimov707@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada jurnalistikaning asosiy funksiyalari, ular haqidagi bir nechta tadqiqotchi va olimlarning nazariyalari keltirilib, tahlil ostiga olingan. Bundan tashqari jurnalistikaning madaniy-ma'rifiy funksiyasi haqida batafsil ma'lumot berilgan. Ushbu funktsiyaning xususiyatlari va o'ziga xos jihatlari yoritilgan. Keltirilgan nazariy fikrlar “Mushtum” jurnalida e'lon qilingan turli shakl va janrlarga oid materiallar orqali solishtirilgan. Qayd etish joizki, “Mushtum” jurnalida madaniy-ma'rifiy mavzularda e'lon qilingan kontentlar salmoqli o'ringa ega. Jurnalidagi ushbu sohaga oid kontentlarning ham hajviy, ham oddiy shaklda kelishini kuzatishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: jurnalistik funksiyalar, targ'ibotchilik, tashkilotchilik, tashkiliy-ommaviylik funksiyalari, hajviy jurnalistika, tasvir, tahlil, tasviriyl funksiyalar, madaniy-ma'rifiy hajviya.

РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ЖУРНАЛА «МУШТУМ» В ОСВЕЩЕНИИ КУЛЬТУРНО-ПРОСВЕТИТЕЛЬСКОЙ СФЕРЫ

Аннотация. В данной статье рассматриваются основные функции журналистики, приведены теории ряда исследователей и учёных, которые подвергнуты анализу. Кроме того, подробно раскрывается культурно-просветительская функция журналистики, её особенности и характерные черты. Теоретические положения проанализированы на основе различных форм и жанров материалов, опубликованных в журнале «Муштум». Следует отметить, что в журнале «Муштум» значительное место занимает контент, посвящённый культурно-просветительской тематике. При этом подобные материалы представлены как в сатирической, так и в нейтральной форме. В обоих случаях можно отметить, что поставленные цели были достигнуты.

Ключевые слова: функции журналистики, пропагандистская функция, организационная и массовая функция, сатирическая журналистика, образ, анализ, изобразительная функция, культурно-просветительская сатира.

THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE MAGAZINE “MUSHTUM” IN COVERING THE CULTURAL AND EDUCATIONAL SPHERE

Annotation. This article examines the main functions of journalism, presenting and analyzing theories proposed by various researchers and scholars. In particular, it provides a detailed overview of the cultural and educational function of journalism, highlighting its characteristics and distinctive features. Theoretical views are analyzed through materials of various forms and genres published in Mushtum magazine. It is noteworthy that Mushtum magazine gives significant attention to content related to cultural and educational topics. Such content appears in both satirical and neutral forms, and in both cases, the intended communicative goals have been successfully achieved.

Keywords: functions of journalism, propaganda function, organizational and mass function, satirical journalism, depiction, analysis, representational function, cultural and educational satire

Kirish. Hozirgi vaziyatda butun dunyoda axborot urushi shiddat bilan alanga olayotgani hech kimga sir emas. Har bir jamiyat o'z manfaati yo'lida axborot degan tushunchadan o'zi istaganicha foydalanmoqda. Provokatsion va manipulyatsion axborotlar media makonda jadallik bilan kengayib bormoqda. Mana shunday jarayonlarga qarshi immunitetni shakllantirish har qanday turdagi OAVning asosiy vazifalaridan biridir. Bu borada davlatimiz rahbari ham quyidagicha fikrni ta'kidlab o'tganlar: “Ayni vaqtda barchamiz bir haqiqatni unutmasligimiz zarur: axborot maydonidagi turli baxs va tortishuvlar, avvalo, haqqoniylik va xolislik tamoyillariga asoslanishi, qonun va odob qoidalari doirasida bo'lishi, shaxsiy g'araz va xusumatga, soxta obro' orttirish usuliga aylanib ketmasligi, inson shaxsi va sha'nini tahqirlanishdan yiroq bo'lishi, bunday salbiy holatlarga bizning media maydonimizda mutlaqo o'rin bo'lmasligi kerak” [1,2].

Yuqoridagi fikrlarga diqqat qaratadigan bo'lsak, bugungi kunda har bir OAVga qo'yilayotgan talab naqadar yuqori ekanligi oydinlashadi. "Bugungi kunda jurnalistlarimizning asosiy vazifalari – turmushga yangicha munosabat, kun sayin o'zgarib rivojlanib borayotgan hayotdagi yangiliklar mag'zini tushunish, ulardan orqada qolmaslik, erishilgan natijalar tahlilida inson manfaatlarini ko'ra olish, masala mohiyatini turlicha yondashuvlar orqali chuqur va ta'sirchan shakllarda xolis yoritishdan iborat ekanligi barchamizga ayon" [2,44]. Ushbu vazifalar OAVning har bir turi uchun birdek dahldor. Ilmiy asosda qaraydigan bo'lsak, jurnalistika sohasining funksiyalari olimlar tomonidan turlicha talqin qilinganiga guvoh bo'lamiz. S.G. Korkonosenko jurnalistikaning funksiyalarini quyidagilar ekanini ta'kidlaydi: "Targ'ibotchilik, tashkilotchilik, tashkiliy-ommaviylik" [3,176]. Ushbu keltirilgan ta'rifga esa Y.K. Hamdamov shunday fikr bildirib o'tgan; "S.G. Korkonosenko funksiyalarga baho berishda masalaga an'anaviy nuqtayi nazardan yondashadi. Uning jurnalistikaning tashkiliy-ommaviylik funksiyasiga alohida urg'u berganiga qo'shilish mumkin. Muallif bunda fikrni jurnalistning aholining guruhlarini, shtatsiz muxbirlari, jamoatchilik tashkilotlari bilan o'zaro aloqalariga yo'naltirilganini nazarda tutadi" [4,20].

Jurnalistikaning funksiyalari haqida o'zbek olimlaridan esa M. Xudoyqulov "ularni uch tarkibiy qism – tasvir, tahlil va ta'sir" [5,28]ga bo'lib o'rganishni tavsiya qilsa, Y.K. Hamdamov o'zining "O'zbekiston matbuoti rivojlanishining asosiy tamoyillari" deb nomlangan monografiyasida ularni quyidagicha tasniflab o'tgan: "1. Ma'lumot yetkazish funksiyasi. 2. Madaniy- ma'rifiy funksiyasi. 3. Tashkilotchilik funksiyasi. 4. Dam oldirish (ko'ngilochar) funksiyasi" [5,28]. E'tibor qaratadigan bo'lsak, ushbu funksiyalar barchasi tasniflangan davri uchun dolzarb bo'lgan, bundan tashqari ularning barchasi bir-birini rad etmasdan, aksincha, to'ldirib kelganiga guvoh bo'lamiz.

Yuqorida biz jurnalistikaning asosiy funksiyalari haqida faktlarni ko'rib chiqdik. Endi ushbu funksiyalardan biri bo'lgan "madaniy-ma'rifiy" funksiyasiga e'tibor qaratib o'tamiz. Ushbu funksiya bugungi kunda eng dolzarb vazifalardan biri hisoblanadi. Negaki deganda, media makonda asosiy xavf va axboriy xurujlar aynan shu sohada yuzaga kelmoqda. Hozirgi kunda ko'plab jamiyatlarning tanazulligiga aynan madaniy-ma'naviy xurujlar sabab bo'layotgani hech birimizga sir emas. Madaniy-ma'rifiy sohalar hozirgi axborot va ma'lumot olish juda ham tezlashgan davrda jiddiy e'tibor talab qiladigan sohaga aylanib qoldi. Bu borada OAV boshqa soha vakillariga qaraganda ancha ta'sirchanlik kuchiga ega. Ayniqsa, ijtimoiy tarmoq va messenjerlardagi kontentlarning ahvoli jiddiy e'tibor talab qiladi.

Asosiy qism. Madaniy-ma'rifiy sohaga oid bo'lgan kontentlar OAVlarining deyarli barcha turida uchraydi. Ayniqsa bosma OAVlari bu borada o'ziga xos xususiyatga egadir. "Jurnalistika bir tomondan boshqa institutlar bilan birga yordam bergan holda, keng ma'noda madaniyatni tarqatadi, boshqa tomondan esa ma'lumotlarni ko'z oldimizga shundayligicha namoyon etadi va (uni ko'pincha "ko'ngilochar" deyishadi) bo'sh vaqtini mazmunli, foydali o'tkazishni ta'minlaydi. To'laligicha dam olish jismoniy kuchni tiklash, ruxiy charchoqni olishni ta'minlaydi" [6,80]. Ushbu soha yurtimizdagi deyarli barcha gazeta va jurnallarda doimiy ravishda yoritiladi. Ana shunday nashrlardan biri "Mushtum"jurnalidir.

Barchaga ma'lumki, "Mushtum" jurnali mana bir asrdan oshiq vaqtdirki hajviy yo'nalishda faoliyat olib yurtib kelmoqda. Jurnal hozirgi kunda o'zining yo'nalishida yurtimizdagi yagona axborot manbasi hisoblanadi. "Mushtum" jurnalining bir asrdan ortiq faoliyati davomida madaniy-ma'rifiy sohaga oid kontentlarni doimiy ravishda e'lon qilib borgan. Madaniy-ma'rifiy sohaga oid kontentlarning sifati va salmog'i jurnalda oxirgi o'n yillikda yanada ortib, turli xil shakl va janrlarda o'z aksini topa boshladi. Bunday xilma-xillikka sabab sifatida barcha sohalar kabi madaniy sohadagi tub o'zgarishlarni aytsak bo'ladi. Yuqorida ta'kidlaganimizdek, "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan kontentlarning asosiy qismi hajviy yo'nalishda e'lon qilingan. Ammo oxirgi o'n yillikdagi kontentlarni tahlil qilib ko'radigan bo'lsak, madaniy-ma'rifiy mavzudagi kontentlar aralash holatda ham kelgani namoyon bo'ladi. Aniqroq qilib aytganda jurnalda uchraydigan madaniy-ma'rifiy kontentlarni shartli ravishda ikki turga ajratish mumkin.

1. Hajviy shaklda berilgan kontentlar;
2. Oddiy shaklda hajviyasiz berilgan kontentlar.

Bunday holat, asosan, ularning oldiga qo'yilgan maqsadi bilan bog'liq holatda yuzaga kelgan. Agar mualliflar madaniy-ma'rifiy sohadagi muammo va kamchiliklarni yoritishni maqsad qilib olgan bo'lsa, unda ko'p holatlarda hajviyaning yo satira, yo yumor shaklidan foydalangan holatda kontentni tayyorlaydi. Agar sohaga oid qandaydir yangilik yoki ma'lumotni auditoriyaga yetkazishni maqsad qilgan bo'lsa, asosan, hajviy shaklda emas, oddiy shaklda e'lon qiladilar. Quyida jurnalda e'lon qilingan namunalarga nazar tashlaymiz.

Jurnalning 2024-yil 5-soni 7-betida Yor Muhammad qalamiga mansub "Ag'darilgan chumoli va xotinboz xo'roz yoxud ba'zi teledasturlarga o'xshatma" deb nomlangan kontent e'lon qilingan. Ushbu kontentga e'tibor qiladigan bo'lsak, unda hozirgi kunda ayrim telekanallarda, ayniqsa xususiy kanallarda ancha avj olgan bachkana shakldagi informatsion ko'rsatuvlar hajv ostiga olingan. Ushbu maqolada, asosan, informatsion dasturdagi ikki lavha keltiriladi. Birinchi lavhada donni tishlab orqa tomonga yurib ketayotgan

chumoli o'rmondagi nufuzli tashkilot rahbari bo'lgan ayiqqa tushlik qilib turgan vaqtida borib uriladi. "Shunday katta to'qnashuvni ayiq mutlaqo sezmagani bo'is intervyu berishdan bosh tortdi va lo'nda qilib "Ko'ziga qarab yursa o'ladimi?", dedi. Bundan tashqari ushbu kontentda yana shunday fikrlar ham keltirilgan:

"Ammo bu yerda ba'zi savollar paydo bo'ladi: Xo'sh, o'rmondagi nufuzli idoraning boshlig'i bo'lmish ayiq tushlik taomni o'z puliga olganmi yoki biror sho'ring qurg'urni qon qaqshatganmi? Bizningcha, bu savolga javob topish uchun xizmat tekshiruvi o'tkazish kerak" [7,7].

Bundan tashqari maqolaning ikkinchi qismida xo'roz va tovuqning o'zaro janjali ham hajviy shaklda reportaj holida yozilgan. Unda aytilishicha, xo'roz yigirma beshta jo'janing onasi tovuq bilan janjallashgan. Bunga sabab xo'rozning Makiyonxonni haqorat qilgani ekan. Bu voqeaga olasigir quyidagicha guvohlik beradi:

"Makiyonoy xo'rozning qirqinchi xotini ekan. U keyingi paytlarda eriga muntazam ravishda xiyonat qilib, uyali telefonda qo'shnisi Babaqboy bilan "sirlashib" turarkan. Xo'roz ularni "shakarguftorlik" qilayotganda, yotoqda ushlab olib, xaqorat qilgan va qirq birinchi xotinikiga ketib qolgan" [7,7]. Maqolada aytilishicha xo'roz jo'jalarning otaligini aniqlash bo'yicha DNK tekshiruvi ham tayinlangan.

Yuqoridagi maqolaga e'tibor beradigan bo'lsak, unda teledasturlarda ko'payib ketgan ma'nisiz kontentlar hajv ostiga olingan. Maqolaning ikkala qismida ham hajv ostiga olingan axborotlar hozirgi kunda faqat shov-shuv ko'tarish uchun efirga beriladigan xabarlardan iborat. Bunday xabarlardan jamiyat uchun hech qanday foyda va manfaat yetmasligi ta'kidlab o'tilgan. Bunday xabarlar faqat auditoriyani jalb qilish uchun "sariq matbuot" vositasi hisoblanadi.

Xuddi shunday xabarlardan biri Abdualol Rahim qalamiga mansub "Reklama" sarlavhali kontentdir. Unda radioeshittirishlarda hozirgi kunda juda ham ommalashib ketgan erkaklar uchun mo'ljallangan "darmon dori"larning reklamalar hajv ostiga olingan. Ushbu eshittirishda Mashhurbek degan "mashhur" shifokor radioga taklif etilgan. O'sha mashhur shifokor radio boshlovchiga bir nechta savollar beradi. Boshlovchi qanday javob bersa ham undan kasallik alomatlari topaverdi. Keyin esa do'xtir Mashhurbek "Ultra yetmishvoy" dorisining ta'rifini aytib, radio tinglovchilarga murojaat qiladi. Ammo shu joyga yetganda do'xtir ham "qovun tushiradi".

"Ishonavering bu dori bebaho! Yana, mutlaqo zararsiz, kerak bo'lsa, ikki yuz foiz tabiiy giyohlardan tayyorlangan! Dori tayyorlaydigan giyohlar suvi oqmay qolgan zovur bo'ylaridan terib olingan.

– Siringizni aytib qo'yyapsiz! – radio boshlovchi kafti bilan mikrofonni to'sdi.

– Va-ay! Og'riq qiynab qo'ydi, shoshib qolibman! – Mashhurbek tipirchilay boshladi.

– Do'xtir, o'zingizdayam bormi o'sha kasallik? – radio boshlovchi ko'zlarini katta –katta ochdi.

– Jim! Eshitib qolishadi, – Mashhurbek shoshib mikrofonni kafti bilan berkitdi" [8,7].

Yuqoridagi lavhaga e'tibor beradigan bo'lsak, aholi uchun umuman foydasiz bo'lgan dori vositalarining reklamasi hozirgi kunda har bir OAVning asosiy daromad turidan biriga aylanmoqda. Ana shunday holatlarni fosh etish uchun ushbu kontent tayyorlangan.

Ushbu sonning 14-sahifasida Nikolay Samoxinning "Yozuvchilikni kim o'rgatadi" deb nomlangan hajviyasi Bahora Muhammadiyeva tarjimasini bilan e'lon qilingan. Ushbu hajviya bir yozuvchi tilidan hikoya qilinadi. Hajviya yozuvchining "yozuvchilikni hech qayerda o'rgatmagani yomonda" degan xitobi bilan boshlanadi. U fikrini davom ettirib oliy o'quv yurtlaridagi ta'lim jarayonida va darsliklarda bu borada ko'plab fikrlar va qoidalar mavjudligini ta'kidlaydi. Ammo aniq bir qonun qoida mavjud emasligini aytadi. Bunday fikrlarini o'zi yozgan hikoyalarini ko'plab tahririyatlarga olib borgan bilan izohlaydi. Shunda yozuvchiga bir muharrir hikoyangiz "sxematik ravishda yozilgan...bu sxemani go'sht bilan to'ldirish kerak" desa boshqa biri "mujmal, ishlanmagan, xom", yana bir ko'zoynakli yosh muharrir esa "...aslida bu yerda hikoya yo'q, bu mashq, loyiha" degan javoblarni beradi. Shunday qilib u juda ko'plab tahririyatlarga boradi, ammo yuqoridagi kabi fikrlarni eshitadi. Shunda yoshi bir joyga borib qolgan adabiy maslahatchi uning o'z ta'biri bilan aytganda "ko'zini ochib qo'yib" shunday maslahat beradi:

"– Siz shunday yozingki, yaxshi yigit, – so'zlar zich joylashsin, lekin fikrlaringiz erkin bo'lsin. Uqdingizmi?

– Tushundim, – dedim minnatdorchilik hissi bilan cholning qo'lini siqib" [9,14].

Shundan so'ng yozuvchi ikki oy mashinkaning oldida turib keksha muharrirning maslahatiga amal qilib olti yuzdan ortiq sahifali kitobni yozib tugatdi va o'sha ko'zoynakli yosh muharrirning oldiga bordi. Shunda muharrir papkaning qalinligini ko'rib butunlay boshqa odamga aylanadi va uni mineral suv bilan mehmon ham qiladi. Keyin qo'lyozmani ko'rib chiqadi va so'zlari tiqilinch deb baho beradi. Keyin yozuvchi kitobi bo'yicha muharrirning yakuniy qarorini kutayotganini va vaqti kam ekanligini, kitobning ikkinchi qismini yozayotganini ta'kidlab o'tadi.

Ushbu maqolada hikoya yozib uni ko'plab tahririyatlarga olib borgan, ammo faqat qandaydir kamchilik sababli hikoyalari qaytarilgan, ammo hikoya yozishda qanday va qayerda kamchilikka yo'l qo'ygani hech

qaysi muharrir aniq aytmas edi. Keyin esa u ham ko'pchilik tutgan yo'lni tutishga majbur bo'ladi. Aniqroq aytganda yozgan kitobining sifatini emas, balki hajmini oshirib bordi. Hajviyada mana shunday illatlar yumor orqali fosh etilgan.

Bundan tashqari jurnalda M. Saddinovaning "Milliy serialmi, serial milliyi?" deb nomlangan tanqidiy maqolasi ham keltirilgan. Ushbu maqola sarlavhasidan ma'lumki hozirgi milliy seriallar haqida yozilgan. Muallif maqolaning kirish qismida yigirmaga yaqin serialning nomlarini keltirilgan. Ulardan ayrimlarini keltirib o'tamiz: "Kundosh", "Xotinchalish qaynuka", "Azart", "Kundoshlik azobi", "Zo'rlangan qiz", "Dugonamning eri" va boshqalar. Ushbu seriallar haqida muallif shunday fikr bildirgan:

"Bu hali shunchaki "milliy" seriallarga berilgan nomlar! Voqealar rivojini esa bayon etishga na qalam na til ojiz...

Gapning indallosi shuki, "milliy" serial deb e'firla uzatilayotgan ushbularni serial deyishga ham tilim bormayapti, o'shalar faqat o'zlikni, milliylikni yo'qotish uchun dastak bo'lib qolmayaptimikan? Oila davrasida o'tirib ko'rishga yaramaydi..." [10,16].

Ushbu maqolada muallif ushbu masala bo'yicha qaysidir yig'ilishda savol bilan ham murojaat qilganini, kattakon amaldorlardan biri esa "xususiy telekanallarni boshqara olmaymiz, chunki ular xususiy-da, mayli, men bir bu muammoni tegishli tashkilotlarga yetkazaman, yechim topamiz degan emish". Ammo hali ham hech qanday javob olmaganini ta'kidlaydi. Ushbu maqolada byudjetdan milliardlab mablag'lar sarflangan, ammo jamiyat uchun hech qanday manfaat keltirmaydigan seriallar tanqid ostiga olingan.

Biz yuqorida "Mushtum" jurnalida e'lon qilingan madaniy-ma'rifiy kontentlar, asosan, ikki xil shaklda berilganini ta'kidlagan edik. Yuqorida ko'rib o'tgan kontentlarimizdan "Ag'darilgan chumoli va xotinboz xo'roz yoxud ba'zi teledasturlarga o'xshatma", "Reklama", "Yozuvchilikni kim o'rgatadi" sarlavhali kontentlar hajviy shaklda keltirilgan bo'lsa, "Milliy serialmi, serial milliyi?" tanqidiy maqolasi hajviy shaklda berilmagan. Kontentlarning u yoki bu shaklda kelishidan qat'iy nazar o'z oldiga qo'ygan maqsadi aniq bo'ladi. Faqat birida holat biroz obrazliroq holatda tasvirlangan bo'ladi. "Mushtum" jurnalining 2016-2017-yillarda e'lon qilingan deyarli barcha sonlarida "Jahon kulgi ustalari", "O'zbek kulgi darg'alari", "Mashhurlar hayotidan" va boshqa ko'plab ruknlar ostida jahon va milliy kino va teatr, hajviy aktyorlar haqida, ularning hayot va ijod yo'llariga bag'ishlangan kontentlar muntazam ravishda e'lon qilib borilgan. Ushbu kontentlarning barchasi jurnal madaniy-ma'rifiy sohani yoritishda juda salmoqli o'ringa ega ekanligidan dalolat beradi.

Xulosa. Madaniy-ma'rifiy funksiya bu jurnalistikaning o'z oldiga qo'ygan asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ayniqsa, hozirgi axborot xurujlar avj olgan vaziyatda madaniy sohaga oid milliy manfaatlarimizni o'zida aks ettirgan loyiha va kontentlar bizning asosiy qurolimiz hisoblanadi. "Mushtum" jurnali ham ushbu holatni teran anglagan holda har bir sonida bir nechta turli shakl va janrlarda madaniy-ma'rifiy sohaga oid kunning eng dolzarb jihatlarini o'zida aks ettirgan kontentlarni e'lon qilib kelmoqda. Ushbu kontentlar bir tomondan sohaga oid muammo va yechimlarni hal qilishda yordam berayotgan bo'lsa, boshqa tomondan xalqimizning ushbu sohaga oid kontentlarga bo'lgan ehtiyojini qondirishga xizmat qilmoqda.

ADABIYOTLAR:

1. Mirziyoyev Sh. Matbuot va ommaviy axborot vositalari xodimlariga // *Xalq so'zi*. 2019, 28-iyun.
2. Shomaqsudova S., Toshmuhamedova L. Ommaviy axborot vositalarida tildan foydalanish masalalari // *Oliy jurnalistika kurslarida ixtisoslashuv masalalari. (Seminar materiallari)*. – Toshkent, 2012.
3. Корконосенко. С.Г. Основы журналистики. – М.: Аспект Пресс, 2002. – С.176.
4. Хамдамов Ю.К. Ўзбекистон матбуоти ривожланишининг асосий тамойиллари. – Тошкент, Kaleon Press. 2021.
5. Худойкулов М. Оммaviy axborot vositalari nazariyasi. – Т.: ЎЗМУ, 1999, -
6. Прохоров Е.П. Введение в теорию журналистики. – М.: Аспект, 2011. – С.80.
7. Yor Muhammad. Ag'darilgan chumoli va xotinboz xo'roz yoxud ba'zi teledasturlarga o'xshatma // *Mushtum*. – 2024-y. – №5.
8. Abdusalol Rahim. Reklama // *Mushtum*. – 2024-y. – №5.
9. Samoxin. N. Yozuvchilikni kim o'rgatadi // *Mushtum*. . – 2024-y. – №6.
10. Saddinova M. Milliy serialmi, serial milliyi? // *Mushtum*. – 2024-y. – №5.